OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	882
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH	888
Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	901
Абилов Эльман Худаверди оглы	
QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL.....	906
Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich	
TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI XUSUSIDA.....	914
Hakimov Odil Arziqulovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	918
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	930
Uzakova Umida Ruziyevna	
INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQUVISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLAKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi	
FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	973
Islamova Dilnoza Isamidinovna	
ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	978
Uzaqov Jamshid Norboyevich	
TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	983
Shaymanov Mexriddin Ibragimovich	
ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA.....	987
Sadikova Ra'no Abdullaevna	
FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVI RISKLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI	991
Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ UZAUTO MOTORS.....	996
Шарипов К.А., Зайнутдинова У.Дж.	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIK BILAN TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA MUAMMOLAR TADQIQI.....	1005
Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich, Saparov Murod Irgashovich	
YO'LOVCHI TASHISH XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1010
Alisher Kurambayev	
SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAKAFUL SUG'URTASINING O'RNI VA IMKONIYATLARI	1014
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	



SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAKAFUL SUG'URTASINING O'RNI VA IMKONIYATLARI

Sattorov Ixtiyor Ochilovich

Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi xodimi

Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li

Oliy maktab tinglovchisi:

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom moliyasida sug'urta tizimining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan takaful tizimining rivojlanish istiqbollari hamda uning an'anaviy sug'urta tizimidan farqli jihatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, takaful tizimini rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar bilan bir qatorda mavjud imkoniyatlar ham atroflicha muhokama etilgan. Tadqiqot natijalari asosida kelgusida takaful tizimini barqaror va samarali rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Takaful, sug'urta, ta'avun modeli, mudarabah modeli, vakala modeli, gibrid model, vaqf modeli.

Abstract. This article examines the development prospects of the takaful system as one of the key components of Islamic finance and analyzes its distinctive features compared to the conventional insurance system. In addition, the study discusses both the existing challenges and the available opportunities in the development of the takaful system. Based on the research findings, practical recommendations are proposed to ensure the sustainable and effective development of the takaful system in the future.

Key words: Takaful, insurance, ta'awun model, mudarabah model, wakalah model, hybrid model, waqf model.

Аннотация. В статье рассматриваются перспективы развития системы такафул как одного из важных направлений исламских финансов, а также анализируются ее отличия от традиционной системы страхования. Наряду с этим всесторонне обсуждаются как существующие проблемы, так и потенциальные возможности развития системы такафул. На основе полученных результатов разработаны научно-практические рекомендации, направленные на обеспечение устойчивого и эффективного развития системы такафул в перспективе.

Ключевые слова: Такафул, страхование, модель таавун, модель мудароба, модель вакаала, гибридная модель, модель вакф.

KIRISH

Bugungi global moliya bozorida islomiy moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Jumladan, takaful — islom sug'urtasi xalqaro sug'urta bozorida o'zining alohida o'rniga ega bo'lgan muhim moliyaviy instrumentlardan biri hisoblanadi. Takaful atamasi arab tilidagi "kafaala" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "o'zaro kafil bo'lish" ma'nosini anglatadi.

Takaful sug'urtasi an'anaviy sug'urtaga muqobil bo'lib, islom huquqining moliyaviy tamoyillari asosida tashkil etiladi. Ushbu tizimda ishtirokchilar o'z mablag'larini yagona jamg'arma fondiga yig'adilar va bu mablag'lar aniq maqsadga — ishtirokchilarni moliyaviy yo'qotishlardan himoya qilishga yo'naltiriladi. Takaful tizimida ribo (foiz, sudxo'rlik), maysir (qimor va haddan tashqari tavakkalchilik) hamda g'orar (noaniqlik va mavhumlik) kabi islom yuridik qoidasida taqiqlangan amaliyotlar qo'llanilmaydi, shuningdek, adolat va o'zaro yordam tamoyillariga qat'iy rioya qilinadi.



Islom qoidalari asosidagi sug'urta — takafulga 1985-yil Islom yuridik qoidasi akademiyasi kengashining fatvosi bilan ruxsat berilgan. Shundan so'ng, takaful tizimi islom moliyaviy xizmatlarining muhim tarkibiy qismi sifatida dunyo bo'ylab an'anaviy sug'urtaga muqobil model sifatida izchil rivojlanib kelmoqda. Keyingi yillarda takaful sug'urtasi Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklari hamda boshqa Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida keng miqyosda joriy etila boshlandi.

Xususan, Malayziya hukumatining islomiy moliyaviy xizmatlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosati takaful bozorining jadal o'sishiga sezilarli hissa qo'shdi. Bugungi kunda esa takaful sug'urtasi nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham kengayib, moliyaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi samarali sug'urta modeli sifatida e'tirof etilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Islomiy moliya sohasining yetakchi olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy ishlarga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, Muhammad Taqi Usmoniy — sukuk bozorining asoschilaridan biri bo'lib, tijorat shartnomalari, kredit va qarz munosabatlari, sheriklik va investitsiyalar, ijaraga berish, valyuta ayirboshlash hamda sukuk (islomiy obligatsiyalar) yo'nalishlarida fundamental tadqiqotlar olib borgan [1]. Monzer Kahf esa islomiy iqtisod nazariyasining zamonaviy asoschilaridan biri sifatida davlat moliyasi, zakot tizimi, islomiy aktivlar boshqaruvi, islom ijtimoiy moliyasi, ijtimoiy ta'minot tizimi, zakot iqtisodiyoti, notijorat islomiy moliya hamda islomiy va an'anaviy moliyaning qiyosiy tahlili masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlarni amalga oshirgan [2].

Abbas Mirakhor islomiy moliyaning institutsional modelini ishlab chiqqan yetakchi iqtisodchilardan biri bo'lib, islomiy iqtisodiy tizim tamoyillari, risklarni taqsimlash modeli, sukuk bozori, makroiqtisodiy siyosat hamda islomiy moliyaviy arxitektura yo'nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borgan [3]. Mohammad Hashim Kamali esa islom huquqi bo'yicha eng nufuzli zamonaviy olimlardan biri sifatida islom moliyasi tamoyiliga va moliya integratsiyasi, islom huquqi, tijorat qonunchiligi, islom moliyasi tamoyiliga asosidagi shartnoma huquqi hamda moliyaviy etikaga oid fundamental tadqiqotlar muallifi hisoblanadi [4].

Rifaat Ahmed Abdel Karim islomiy moliya standartlari, audit va moliyaviy hisobot tizimini shakllantirishda muhim hissa qo'shgan olimlardan biri bo'lib, islomiy banklar uchun islom moliyasi tamoyiliga standartlari, risklarni boshqarish, likvidlikni boshqarish, moliyaviy hisobot va kapital yetariligi masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlar olib borgan [5]. Shuningdek, Mohammad Kabir Hassan islomiy bank instrumentlarining iqtisodiy o'sish, investitsiya oqimlari va moliyaviy barqarorlikka ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari bilan tanilgan [6]. Ushbu olimlarning ilmiy ishlari mazkur tadqiqot doirasida tizimli ravishda o'rganildi va tahlil qilindi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, SWOT-tahlil hamda statistik ma'lumotlar tahlili usullaridan foydalanildi. Adabiyotlar tahlili jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tashkilotlarning hisobotlari atroflicha o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Takaful va an'anaviy sug'urta o'rtasidagi asosiy farq ularning moliyaviy modellari hamda amal qiladigan tamoyillarida namoyon bo'ladi. An'anaviy sug'urta tizimida sug'urta kompaniyalari ko'rsatilgan xizmat evaziga haq oladi va olingan daromadlar kompaniyaning shaxsiy mulki sifatida qaraladi. Takaful tizimida esa ishtirokchilar o'zaro yordam tamoyili asosida mablag' yig'adilar va ushbu mablag'lar ishtirokchilarning manfaatlarini himoya qilishga yo'naltiriladi. Shu bilan birga, takaful jamg'armasi mablag'lari faqat islom qoidalariga muvofiq ruxsat etilgan faoliyat turlariga sarmoya qilinadi, ya'ni islom yuridik qoidasida taqiqlangan sohalarga investitsiya kiritilmaydi.


Takaful sug'urtasining muhim afzalliklaridan biri uning ijtimoiy barqarorlik va adolat tamoyillariga asoslanishidir, chunki ushbu tizim moliyaviy himoyani ta'minlash bilan birga jamiyatda o'zaro yordam va mas'uliyatni kuchaytiradi hamda ishtirokchilarning mablag'larini halol faoliyatlarga yo'naltirish orqali umumiy iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, takaful sug'urtasi aholiga, xususan, an'anaviy sug'urta tizimlarida islom qoidalariga zid bo'lgan ayrim amaliyotlar mavjudligi sababli sug'urta xizmatlaridan foydalanishda cheklovlariga duch keladigan musulmonlar uchun halol va maqbul muqobil sifatida namoyon bo'ladi hamda ularning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. SWOT tahlili doirasida esa takaful sug'urtasining kuchli va zaif jihatlari, mavjud imkoniyatlari hamda ehtimoliy tahdidlari tizimli ravishda aniqlanib, har tomonlama baholanadi (1-rasm).



1-rasm. Takaful sug'urtasining SWOT tahlili.¹

Takaful sug'urtasi aholining sug'urta ehtiyojlarini qondirish bilan birga, mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu mexanizm orqali shaxsiy mulklar, shuningdek, kichik va o'rta korxonalar moliyaviy himoyaga ega bo'lishi mumkin, bu esa kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining faollashuviga, pirovardida esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Market Research Future ma'lumotlariga ko'ra, global takaful sug'urta bozori hajmi 2025-yilda (2024-yilda — 45,51 milliard AQSh dollari) 49,79 milliard AQSh dollariga baholanib, yillik o'sish sur'ati 9,41 foizni tashkil etgan hamda 2034-yilga borib umumiy qiymati 111,89 milliard AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda [2]. Mazkur o'sish islomiy moliya to'g'risida iste'molchilarning xabardorligining oshishi, mamlakatlarda sohani qo'llab-quvvatlovchi siyosatlarining joriy etilishi, texnologik taraqqiyotning jadallashuvi hamda iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining faollashuvi bilan izohlanadi.

Islomiy sug'urtalashning an'anaviy sug'urtalashdan muhim farqi shundaki, takaful tizimida ishtirokchilar bir vaqtning o'zida ham sug'urta qildiruvchi, ham o'zaro sug'urtalovchi subyektlar sifatida maydonga chiqadi, sug'urta kompaniyasi esa ishtirokchilar manfaatlarini ko'zlab, asosan agent sifatida faoliyat yuritadi va jamg'arma mablag'lariga egalik qilmaydi. An'anaviy sug'urtada investitsiyalardan olingan foyda sug'urta kompaniyasiga tegishli bo'lsa, takaful tizimida esa sug'urta operatorining (mudaribning) xizmat haqi chiqarib tashlangach, qolgan foyda ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi. Shuningdek, sug'urta qoplamalari to'lab bo'lingandan keyin jamg'armada qolgan mablag'lar ham ishtirokchilar o'rtasida ularning ulushlariga yoki oldindan kelishilgan tartibga muvofiq taqsimlanadi. Shu jihatlari bilan takaful modeli nafaqat moliyaviy himoyani ta'minlaydi, balki adolat, shaffoflik va o'zaro mas'uliyat tamoyillariga asoslangan barqaror sug'urta mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. 2-rasmda esa bugungi kunda amaliyotda qo'llanilayotgan takaful modellari umumlantirilgan holda keltiriladi.



2-rasm. Takaful modellari.²

¹ Mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.

² Mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.



1. Ta'avun (o'zaro hamkorlik) modeli (notijorat model)

Ta'avun modeli asosidagi takafulning bosh maqsadi foyda olish emas, balki risklarni o'zaro taqsimlash hamda turli ko'ngilsizlik holatlarida a'zolar moliyaviy yordam ko'rsatishdan iboratdir. Ushbu model dastlab ta'avun shaklida tashkil etilib, a'zolar o'rtasidagi o'zaro kelishuvga asoslangan tizim sifatida shakllangan. Ta'avun doirasida har bir a'zo oldindan belgilangan miqdordagi mablag'ni "risk fondi"ga kiritadi va bu mablag' tabarru (badaldan voz kechish) tamoyili asosida ishlatiladi. Jaffer va boshqalar (2010) ta'kidlashicha, tabarru bir tomonlama tranzaksiya bo'lib, a'zolar badalni to'lagach, undan kelajakda olinishi mumkin bo'lgan har qanday daromaddan voz kechishlari lozim bo'ladi. Asosiy fondga qo'shimcha ravishda jamg'arish va investitsiya qilishga mo'ljallangan investitsiya fondi ham tashkil etiladi hamda ushbu fond mablag'lari islom moliyasi tamoyiliga talablariga mos keladigan faoliyat turlariga yo'naltiriladi.

Ayrim mutaxassislar tabarru tamoyilining takaful tizimiga to'liq mos kelmasligini qayd etadilar, chunki tabarru mohiyatiga ko'ra a'zolar kiritayotgan badallardan butunlay voz kechishlari kerak bo'ladi. Holbuki, takafulga kiritiladigan badallar tabarru tamoyiliga o'xshash bo'lsa-da, ular oldindan belgilangan summaga ega bo'ladi, kelajakda ma'lum imtiyozlar berishni ko'zda tutadi va ayrim holatlarda badal miqdori o'zgarishi mumkin. Shu sababli takafulda ikki tomonlama kelishuvga asoslangan mexanizm zarurligi ta'kidlanadi. Aynan mana shu ehtiyojdan kelib chiqib, keyinchalik vaqf modeli shakllantirilgan bo'lib, u ham tabarru tamoyiliga asoslanadi.

Ta'avun modeliga amaliy misol sifatida 1979-yilda Sudanda tashkil etilgan birinchi takaful sug'urta kompaniyasini keltirish mumkin. Ushbu model Al-Jazira banki tomonidan qo'llanilgan hamda keyinchalik Saudiya Arabistonida takaful operatsiyalarini amalga oshirish amaliyotida keng tatbiq etilgan.

2. Mudarabah modeli

Mudarabah modeli foydani taqsimlashga asoslangan bo'lib, bunda bir tomon mablag' (kapital), ikkinchi tomon esa tajriba va mablag'larni boshqarish bo'yicha xizmatlarini taqdim etadi. Ushbu tizimda a'zolar yoki sug'urtalanuvchilar mablag'larni kiritib, rab al-mol (kapital egasi) sifatida ishtirok etadilar, takaful operatori esa mudarib sifatida operatsiyalarni boshqaradi. Bunda sug'urta faoliyati mudarabah shaklida tashkil etilib, umumiy takaful yoki oilaviy takaful ko'rinishida amalga oshiriladi. Umumiy takafulda a'zolar tomonidan shakllantirilgan fond faqat islom moliyasi tamoyillariga talablariga mos keladigan faoliyat turlariga investitsiya qilish uchun yo'naltiriladi. Ushbu model tijoriy xususiyatga ega bo'lgani sababli, u ko'pincha takafulning "tijoriy" modeli deb ham ataladi.

Sug'urta hodisalari bo'yicha qoplamalar to'lab berilgach va xizmat ko'rsatish xarajatlari chegirilgach, qolgan mablag', ya'ni foyda, fond doirasida mudarib va rab al-mol o'rtasida oldindan kelishilgan nisbatda taqsimlanadi. Oilaviy takafulda esa a'zolar tomonidan to'lanadigan sug'urta badallari alohida hisob raqamlarida shakllantiriladi: asosiy mablag'lar ishtirokchilar hisob raqamida (PA — participants' account), boshqa mablag'lar esa ishtirokchilarning maxsus hisob raqamida (PSA — participants' special account) jamlanadi. Maxsus hisob raqamdagi mablag'lar xizmat ko'rsatish xarajatlari va sug'urta hodisalari bo'yicha to'lovlar uchun sarflanadi hamda ushbu mablag'lar islom moliyasi tamoyillariga talablariga mos keladigan faoliyat turlariga qayta investitsiya qilinadi. PA hisob raqamidan olinadigan daromad a'zolar va takaful operatori o'rtasida taqsimlanadi, PSA mablag'lari esa asosan andarrayting xarajatlari va sug'urta to'lovlarini qoplash uchun saqlab turiladi. Agar PSA mablag'lari ushbu xarajatlarni qoplash uchun yetarli bo'lmasa, PA fondidan foizsiz qarz (qarz hasan) olinadi. Jarayon yakunida barcha xarajatlar qoplangach, agar ortiqcha mablag' (profisit) shakllansa, u ham a'zolar va operator o'rtasida oldindan kelishilgan ulushga muvofiq taqsimlanadi.

Mudarabah modelida sug'urta operatori zararlar uchun bevosita javobgar bo'lmaydi, zararlar esa umumiy takaful fondi hisobidan qoplanadi. Agar fond mablag'lari yetarli bo'lmasa, a'zolaridan foizsiz qarz (qarz hasan) jalb qilinadi. Ushbu modelda operator foydani taqsimlashda ishtirok etib, zararlarda qatnashmasligi sababli, agentlik riski nisbatan yuqori deb baholanadi va shu bois u ayrim tanqidlarga sabab bo'lgan. Natijada amaliyotda takafulning "Vakala" hamda "Mudarabah-Vakala gibril" modellari shakllangan.

Mudarabah (foydani taqsimlash) shaklidagi takaful dastlab Malayziyada vujudga kelib, keyinchalik Bruneida ham qo'llanila boshlagan.

3. Vakala modeli

Vakala modeli mudarabah modeliga o'xshash bo'lib, unda sug'urta operatori foydadan ulush olish o'rniga komission daromad evaziga xizmat ko'rsatadi. Ushbu modelda a'zolar umumiy takaful fondiga badallarni to'laydilar, takaful operatori esa fond mablag'larini boshqarib, buning evaziga qat'iy belgilangan miqdorda daromad oladi. Fond mablag'lari islom moliyasi tamoyillariga talablariga mos keladigan loyihalarga investitsiya qilinadi, olingan daromad esa takaful fondida jamlanadi. Fondga yig'ilgan mablag'lar sug'urta hodisalari bo'yicha to'lovlar, xizmat ko'rsatish va zaxira xarajatlarni qoplash uchun sarflanadi, qolgan qismi esa a'zolar o'rtasida taqsimlanadi. Agar zarar yuzaga kelsa, operator foizsiz qarz (qarz hasan) rasmiylashtiradi va ushbu qarz keyingi davrlardagi daromadlar hisobidan qoplanadi.

Vakala modelining oilaviy shaklida operator daromadi a'zolar badallarni to'lab bo'lgach, avans sifatida olinadi, qolgan summa esa PA va PSA hisob raqamlariga taqsimlanadi. Har ikkala hisob raqamdan ham



investitsiyalar amalga oshiriladi va olingan daromadlar oldindan belgilangan ulushlarda taqsimlanadi. PSA hisob raqamidan xizmat ko'rsatish va sug'urta hodisalari bo'yicha xarajatlar qoplangach, qolgan mablag' PA hisob raqamiga o'tkaziladi.


Vakala modeli dastlab Saudiya Arabistonining "Bank Al-Jazira" islomiy bankida qo'llanilgan bo'lib, keyinchalik Malayziya va Bahrayn kabi mamlakatlarda ham keng tatbiq etilgan. Ushbu modelda agentlik riski nisbatan past bo'lgani sababli u amaliyotda keng tarqalgan modellardan biri hisoblanadi.

4. Gibrid model

Gibrid model o'zida mudarabah va vakala modellari elementlarini mujassam etgani sababli shunday nomlanadi. Ushbu modelda vakala shartnomasi xizmat ko'rsatish faoliyati uchun, mudarabah shartnomasi esa investitsiya faoliyati uchun tuziladi. Tizimda PA va PSA hisob raqamlari mavjud bo'lib, operator PSAni boshqargani uchun qat'iy belgilangan miqdorda daromad oladi, PAni boshqargani uchun esa a'zolar kabi investitsiya daromadidan ulush oladi. PSA hisob raqamida yuzaga kelgan ortiqcha mablag'lar yakunda PA hisob raqamiga o'tkaziladi. Sug'urta hodisalari bo'yicha to'lovlar, xizmat ko'rsatish hamda retakaful xarajatlari PSA hisobidan qoplanadi. Agar ushbu jarayonda zarar yuzaga kelib, mablag' yetarli bo'lmasa, PA hisob raqamidan PSA hisob raqamiga foizsiz qarz (qarz hasan) rasmiylashtiriladi. Mazkur model Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo mamlakatlarining islomiy sug'urta bozorlarida keng qo'llanilmoqda.

5. Vaqf modeli

Vaqf modeli Pokistonlik olim Muftiy Taqi Usmoniy tomonidan vakala modeli asosida taklif etilgan bo'lib, Karachidagi yirik islomiy ilmiy muassasa — "Darul Ulum" ulamolari tomonidan tasdiqlangan. Bugungi kunda ushbu model Pokiston hamda Janubiy Afrika Respublikasida keng qo'llanilmoqda. Takaful sug'urtasi a'zolari o'z badallarini dastlab vaqf fondiga kiritadilar. Takaful operatori esa vakala komissiyasi o'rniga oldindan kelishilgan ulushni oladi. Islom moliyasi tamoyillariga talablariga mos loyihalarga yo'naltirilgan investitsiyalardan olingan daromaddan sug'urta talablarini qoplash, xizmat ko'rsatish hamda retakaful xarajatlari chegirib tashlangach, qolgan summa operator va a'zolar o'rtasida oldindan kelishilgan nisbatda taqsimlanadi (3-rasm).



3-rasm. Takaful tizimida mablag'lar aylanmasi sxemasi³

3-rasmdan ko'rinib turibdiki, mazkur tizimda har bir ishtirokchi takaful kompaniyasiga mablag' kiritadi. Kiritilgan mablag'lar sug'urta kompaniyasining daromadi sifatida qaralmaydi, balki alohida takaful fondiga joylashtiriladi. Ushbu fond ishtirokchilarning umumiy mulki hisoblanadi, kompaniya esa faqatgina boshqaruvchi (operator) vazifasini bajaradi.

Keyingi bosqichda takaful operatori mazkur mablag'larni islom moliyasi tamoyiliga talablariga mos investitsiyalarga, ya'ni foizsiz va halol faoliyat turlariga yo'naltiradi. Jumladan, savdo, ijara yoki real sektor loyihalariga investitsiyalar amalga oshiriladi. Ushbu investitsiyalardan olingan daromad yana takaful fondiga qaytariladi yoki amaldagi kelishuvga muvofiq ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi.

³ Mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.



Agar ishtirokchilardan biriga zarar yetkazuvchi hodisa yuz bersa (masalan, avtohalokat, yong'in yoki kasallik), unga to'lanadigan sug'urta to'lovi aynan shu umumiy fond hisobidan qoplanadi. Ya'ni, mazkur tizimda moliyaviy yordamni bevosita kompaniya emas, balki jamg'armada ishtirok etayotgan a'zolar o'zaro yordam tamoyili asosida ta'minlaydi.

Sug'urta davri yakunida, agar fond mablag'lari zarar to'lovlari amalga oshirilgandan so'ng ortib qolsa, ushbu ortiqcha mablag' ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi yoki keyingi davr uchun jamg'armada qoldiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, takaful — islom sug'urtasi sug'urta bozorida o'ziga xos o'rin egallab, xalqaro miqyosda tobora ortib borayotgan ahamiyat kasb etmoqda. Takaful sug'urtasining izchil rivojlanishi nafaqat musulmon aholining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga, balki jahon sug'urta bozorining yanada barqaror va ishonchli bo'lishiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, takaful sug'urtasining global miqyosda kengayib borishi sug'urta sektoriga yangi yondashuvlarni olib kirib, ijtimoiy barqarorlik va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Takaful sug'urtasini rivojlantirish uchun milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish, islom moliyasi tamoyiliga talablariga muvofiq moliyaviy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamda malakali mutaxassislar tayyorlash zarur. Shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida takaful tizimining afzalliklarini keng targ'ib qilish, raqamli texnologiyalar asosida yangi mahsulotlarni joriy etish va xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish orqali mazkur tizimning barqaror hamda samarali rivojlanishini ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Usmani, Muhammad Taqi. Sukuk and Their Contemporary Applications (2007). Translated from the original Arabic by Sheikh Yusuf Talal DeLorenzo. AAOIFI Shari'a Council Meeting, Saudi Arabia. 15 p. https://www.researchgate.net/publication/374329073_The_Concept_of_Sukuk_and_its_Applications_in_Contemporary_Islamic_Financial_System.
2. Kahf, Monzer. Islamic Economics: Theory and Practice; Public Finance in Islam; Islamic Banking and Development. <https://monzerkahf.com/>.
3. Mirakhor, Abbas; Iqbal, Zamir. An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice; Risk Sharing in Islamic Finance; Theoretical Foundations of Islamic Economics. <https://nurulichsanaan.wordpress.com/wp-content/uploads/2015/10/an-introduction-to-islamic-finance-theory-and-practice-second-edition-zamir-iqbal-abbas-mirakhor-2011.pdf>.
4. Kamali, Mohammad Hashim. Islamic Commercial Law; Principles of Islamic Jurisprudence; Shari'ah and Islamic Finance. <https://asimiqbal2nd.wordpress.com/wp-content/uploads/2009/06/islamic-law.pdf>.
5. Abdel Karim, Rifaat Ahmed. Islamic Finance. https://www.researchgate.net/publication/242347369_Supervisory_regulatory_and_capital_adequacy_implications_of_profit-sharing_investment_accounts_in_Islamic_finance.
6. Hassan, Mohammad Kabir. Handbook of Islamic Banking. https://www.isfin.net/sites/isfin.com/files/handbook_of_islamic_banking.pdf.
7. <https://scholar.google.com/citations?user=gKc8ZJMAAAAJ&hl=en>.
8. Insurance Asia. Takaful Insurance Market to Grow at 9.41% CAGR. <https://insuranceasia.com/insurance/news/takaful-insurance-market-grow-941-cagr>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
